Toshkent viloyati suv ta’minoti
Aksiyadorlik jamiyati

1559 **10.03.2026y**

Ob’yektning shahar ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanishni loyihalashtirish uchun

TEXNIK SHARTLAR

Ariza raqami **259338773**

Buyurtmachi **"QURILISH VA UY-JOY KOMUNNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI ISSIQLIK TA‘MINOTI OBYEKTLARI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI" DAVLAT MUASSASASI**

Ob’yekt nomi **Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish.**

Manzili **Chirchiq shahar Yoshlik MFY**

Sutkasiga - **230** м^3 suv sarfi

Yong‘inga qarshi extiyoj uchun sekundiga **- 15** litr ichimlik suvi sarflanishi.

Sutkasiga - **230** м^3 oqova suvining tashlanishi

Shartlar mazmuni:

Ichimlik suvi bo’yicha:

1. Ulanish nuqtasi Chirchiq shahar Yoshlik MFY hududidan o‘tgan d-150 mm.li ichimlik suv quvuri joylashgan yaqin quduqga (колодецга) ulanish ishlari amalga oshirilsin. 2. Asosiy tarmoqdan ob’ektning ichki hududiga d-100 mm.li ichimlik suv quvuri tortilsin. 3. Ulanish nuqtasidan qurilish bo‘layotgan ob’ektgacha bo‘lgan masofa uzunligi L=loyihaga ko‘ra aniqlanadi. 4. Suv ta`minoti filiali tasarrufidagi markaziy suv quvuriga ulanish joyiga temir-beton nazorat qudug‘i (колодец), o‘rnatish lozim. (QMQ ga asosan) 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2022-yildagi PQ-257-sonli qaroriga asosan, masofadan malumot uzatuvchi d-100 mm.li zamonaviy elektron ichimlik suv hisoblagich mansublik chegarasiga o‘rnatilsin.

Oqova suv bo’yicha:

1. Ulanish nuqtasi Chirchiq shahar Yoshlik MFY hududidan o‘tgan d-250 mm.li oqova suv quvuri joylashgan yaqin quduqga (колодецга) ulanish ishlari amalga oshirilsin. 2. Asosiy tarmoqdan ob’ektning ichki hududiga d-100 mm.li oqova suv quvuri tortilsin. 3. Ulanish nuqtasidan qurilish bo’layotgan ob’ektgacha bo’lgan masofa uzunligi L=loyihaga ko‘ra. 4. Temir-beton nazorat qudug‘ini o‘rnatish lozim. (QMQ ga asosan). 5. Ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlashning oldini olish maqsadida, inshootdan chiquvchi oqova suvni tashlashdan oldin tindirgich (остойник) va foliyat turiga qarab birlamchi tozalash uskunalari o‘rnatilsin. 6. Qor–yomg‘ir va alohida shartli toza suvlarni oqova suv tarmog‘iga tashlash man etiladi. Alohida shartlar va eslatmalar: 1. Sh.N.Q.2.04.02-19 Suv ta’minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar bo‘limining “Ichimlik va oqova suv inshootlari va quvurlaridan muhofaza zonasini saqlash xamda shikast yetkazmaslik talab qilinadi. 2. Quyidagilar suv ta’minoti korxonasi bilan iste’molchilar shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o‘rtasidagi, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalariga xizmat ko‘rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi: a) suv iste’moli uchun- kommunal tarmoqqa ulanishini uzib qo‘yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, iste’molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi; b) kanalizatsiya uchun: iste’molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog‘iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug‘i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug‘i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog‘ida joylashgan bo‘lsa, ushbu quduq suv ta’minoti korxonalari kanalizatsiya tarmog‘ining bir qismi hisoblanib, unga tutashtiruvchi foydalanish chizig‘i esa iste’molchining mablag‘i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi. 3. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug‘orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo‘l qo‘yiladi: irrigatsiya suvi bo‘lmaganda, suv ta’minoti korxonasi quvvati mavjud bo‘lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo‘yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00–00 dan soat 05–00 gacha) yo‘l qo‘yiladi. 4. Qurilish ishlari hududiy “Obodonlashtirish bosh boshqarmasi”, “Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi” qo‘mitasi, “O‘zTelekom bo‘limi”, “Hudud gaz ta’minot” va” “Hududiy elektr tarmoqlari” korxonalari bilan kelishilgan holda tegishli ruxsatnomalar olgan holatda amalga oshirish tavsiya etiladi. 5. Ulanish ishlarida yer qazish ishlari amalga oshirilgan taqdirda, hududda asfalt qoplamasini qayta tiklash ishlari va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi shart. 6. Texnik shartda belgilangan vazifalar aniq bajirilishi va ulanish ishlari hududiy suv ta’minoti

korxona mas’ul hodimlari bilan amalga oshirish lozim. Texnik shartda berilgan vazifalar bajarilmagan taqdirda iste’mochi tarmoqdan uziladi. 7. Iste’mol qilinadigan ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun suv ta’minoti korxonasidagi “Abonentlar boshqarmasi” bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 194-son qaroriga asosan shartnoma tuzilsin. 8. Texnik shart berilgandan kundan boshlab, yuridik va jismoniy shaxslar ob’ektni ichimlik va oqova suv tarmog‘iga ulash ishlaridan oldin, “Abonentlar boshqarmasi”ning hududiy yuridik va jismoniy shaxslar bilan ishlovchi nazoratchilariga murojaat etish orqali xatlov dalolatnomasi rasmiylashtirish majburiy xisoblanadi. 9. Texnik shart berilgan kundan boshlab ob’ektni ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tarmoqlariga ulanish ishlari ikki yil muddat ichida amalga oshirilmasa, “Texnik shart” o‘z kuchini yo‘qotadi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (ob’ektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho‘zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlariga ulanish bilan bog’liq barcha ishlar faqat vakolatli organlar ruxsatnomasi, tasdiqlangan texnik shartlar va kelishilgan loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ruxsatnomasiz ish olib borish, xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik hamda ishlardan so’ng hududni avvalgi holatiga tiklamaslik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo’ladi. Ob’ekt tegishli organlarning xulosasidan so’ng ekspluatatsiyaga qabul qilinishi tavsiya etiladi.

Ob’yekt ulanadigan shahar tarmog’idagi suv bosimi Hm – 1 atm.

"Toshkent viloyati suv ta’minoti " AJ bilan suv ta’minoti va oqova suv loyihasi kelishilgan bo’lishi shart. Tarmoqqa ulanish Chirchiq sh mutaxassislari nazorati ostida bajarilsin. Ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish «Abonentlar xizmati» bo’limi bilan shartnoma tuzilgandan so’ng ruxsat etiladi.

Texnik shart berilgan kundan boshlab **ikki yil** muddat ichida amal qiladi.
Texnik shartlar qurilish uchun asos bo’la olmaydi.

"Toshkent viloyati suv ta’minoti " AJ R.Mayakubov direktori

Ijrochi Tel. 71-202-14-15